



HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISHDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING O'RNI VA ROLI

BURONBOYEV MIRABBOS TOXIR O'G'LI

*Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3-o'quv kursi 310-guruh kursanti
Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasi ishlarini amalga oshirishda pedagogika fani, ayniqsa yuridik pedagogika fanining roli, o'rni hamda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari nodavlat va notijorat tashkilotlarining pedagogik faoliyatini tizimli ravishda yo'lga qo'yish davr talabi ekanligi asoslantirilgan.

Kalit so'zlar: *Huquqbuzarliklar profilaktikasi, qonun hujjatlari, yuridik pedagogika firibgarlik, tushunchalar, soha vakolatlari, profilaktik metodlar, maxsus proflyaktika, umumiy proflyaktika, yakka tartibdagi profilaktikalar.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunining senat tomonidan ma'qullanishi (2014 yil 10 aprelda) tarixiy voqealardan biri bo'ldi. Ushbu qonun 7 ta bob, 51 ta moddadan iboratdir. Qonunning 3-moddasi asosan huquqbuzarliklar tushunchalariga bag'ishlangan bo'lib, bunda 6 ta tushunchaga izoh berilgan. Ayniqsa, huquqbuzarliklarning profilaktikasining asosiy vazifalari qonunning 4-moddasida batafsil yoritilib berilgan bo'lib, unda "Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalar faoliyatining o'zaro hamkorligini ta'minlash va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish" muammolari alohida ko'rsatilgan.[1] Ushbu qonunda har bir huquqni muxofaza qiluvchi organlarning profilaktika sohasidagi vakolatlari alohida-alohida moddalar bilan belgilab qo'yilgan. Shundan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlarning huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlari (122 -modda)da berilgan bo'lib ushbu moddada "Huquqbuzarliklar profilaktikasining amalga oshiradi, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etadi" deyilgan qonunda. Kriminalologiya fanidan ma'lumki, huquqbuzarliklar profilaktikasi nazariy jihatdan ikkiga bo'lingan:



umumiy profilaktika, maxsus profilaktika. Bir qarashda ushbu profilaktikalar usul jihatidan ikkiga bo‘linsa-da, maqsadi bitta jinoyatlarni oldini olishga xizmat qiladi.[2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

“Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi shaxsning, uning ijtimoiy muhitining o‘ziga xos hususiyatlari, ijtimoiy-maishiy sharoitlari va turmush tarzi, shaxsning g‘ayri-ijtimoiy xulq-atvorini, huquqbuzarlik sodir etishga moyilligini, shuningdek, sodir etilgan huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavflilik darajasini tavsiflovchi boshqa omillar hisobga olingan holda belgilanadi” deyilgan. Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasining choratadbirlari ushbu qonunning 29-moddasida batafsil berilgan bo‘lsa, profilaktikaning metodlari qonunning 30,31,32,33,34-moddalarida aniq yozilgan. Lekin, ushbu qonunning 35-moddasi “O‘ziga nisbatan profilaktik xisobga olish yuritiladigan shaxslar” deb nomlangan. Nimagadir bizga ushbu jumla g‘alizroq tuyilmoqda, ushbu moddani nomini o‘zgartirish yoki aniqlik kiritish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Huquqbuzarliklarning oldini olish bu bevosita yuridik pedagogika fani bilan bog‘liqdir. Ushbu muammoni O‘zbekiston Respublikasida pedagogika yo‘nalishida N.Ostrovskiy¹, R.M.Maxmudovlar chuqur o‘rganishlar olib borishgan va huquqbuzarliklarni oldini olish, yuridik pedagogikaning predmeti ekanligini asoslaganlar.[3] Kriminalogiya fanidan bilamizki, huquqbuzarliklarni oldini olish keng tushuncha bo‘lib asosan yurisprudensiya va yuridik pedagogika fanlari tomonidan o‘rganilmoqda. Huquqbuzarliklarni oldini olishda ayniqsa, firibgarlikni o‘ziga xosligi muhim muammo sanaladi. Ayniqsa, firibgarlik jinoyatlarining oldini olishda maxsus profilaktik choralarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. O‘zbekiston Respublikasining huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi qonunining (2014- yil 10-aprel) 24-moddasida “Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning ayrim turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga, bu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishda ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir faoliyati huquqbuzarlarning maxsus profilaktikasidir” deb ko‘rsatilgan.[4]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Profilaktika xodimlari yuridik pedagogika fanidan xabardor bo‘lishi, uning metodikasi va metodologiyasini yaxshi bilishi shart. Chunki, profilaktika inspektorlarining hududlarida turli toifadagi fuqarolar yashashadi, yuristlar,



harbiylar, pedagoglar, injenerlar, ishchilar, ishsizlar qamalib chiqqandan keyin qaytib kelib, o'zini uyida yashayotgalar, ajrashganlar, to'liq, noto'liq oilalar va hokazolar. Ushbu toifadagi fuqarolar bilan profilaktika inspektori yuridik va pedagogika tilida muammola qilish kerak bo'ladi, chunki fuqarolar turli temperamentdagi, turli harakterdagi shaxslar hisoblanishadi. Profilaktika inspektorlarining bugungi kundagi eng katta quroli ularning nafaqat yuridik ma'lumoti shuningdek muomala madaniyati hisoblanadi, davlat rahbarining talabi ham xuddi shu muomala madaniyatidan to'g'ri foydalanish. Tarixdan biz bilamizki, (A.Navoiydan) qilich bilan ololmaganni, qalam bilan oldi Alisher deydi, qalam deganda yozadigan qalamnigina nazarda tutgan emas, balki muomala madaniyatini ham nazarda tutgan ko'proq. Yuridik pedagogika Jamoat xavfsizligi universitetida o'qitilishi shart bo'lgan fanlardan biri deb hisoblaymiz, chunki yuridik pedagogika to'liq jamoat xavfsizligini ta'minlashiga xizmat qiladigan fan hisoblanadi. Masalan, yuridik pedogogikaning ob'ekti turli toifadagi shaxslar hisoblanadi, predmeti esa ularning turli salbiy xattiharakatlarni oldini olish hisoblanadi, chunki, fuqarolarni salbiy xatti-harakatlarni oldini olish faqat yuridik pedagogikaning ob'ekti bo'lib hisoblanishi barchaga ma'lum, xuddi shunday ob'ektlardan birining salbiy faoliyat turi bu firibgar shaxslardir.[5] Firibgar shaxsni firibgar ekanligini kerak bo'lsa, oilasidan ham oldin profilaktika inspektori biladi lekin, profilaktika inspektorlari firibgar shaxslar bilan yakka tartibda ishlashi mumkin, ba'zida firibgar shaxslar bilan suhbatda xududda boshqa ochilmay yotgan jinoyatlar ham ochilib ketadi. Firibgarlik jinoyati bugungi kunga kelib, yangi tus oldi, uning yangi- yangi qirralari ochilmoqda, firibgarlik jinoyatlari o'zining harakteriga ko'ra ochiq holatdan, yashirin (yopiq) holatga o'tmoqda. SHuning uchun firibgarlik jinoyatlarini sodir etilishining oldini olish maqsadida profilaktika inspektorlari ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xodimlari davlat organlari va jamoatchilik tuzilmalari bilan hamkorlik qilish alohida ahamiyat kasb etadi." Bu borada ayniqsa, mahalla fuqorolar yig'inlari, mahalla posbonlari, muassasalar, tashkilotlar ma'muriyati va jamoasi bilan amalga oshiradigan chora- tadbirlar ijobiy natija beradi. Profilaktika inspektori firibgarlik jinoyatlarini oldini olish maqsadida mahalla fuqarolari bilan umumiy maxsus, yakka tartibdagi profilaktika ishlarini to'g'ri va kompleks tashkil etish lozim. Profilaktika inspektori firibgarlikning oldini olish maqsadida Milliy Gvardiya, huquqni muhofaza qilish organlari sohaviy xizmatlari, masalan, jinoyat-qidiruv, patrul post, kerak bo'lsa yo'l patrul va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmatlari va boshqa profilaktika ishlarini amalga oshiruvchi organ va muassasalar hamda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari nodavlat va notijorat tashkilotlar bilan hamkorlikni tizimli



ravishda yo‘lga qo‘yish davlatimiz rahbarining talabidir. Bugungi kunga kelib, firibgarlik jinoyatining yakka tartibdagi profilaktikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunning talablari asosida amalga oshiriladi, firibgarlikga oid jinoyatlar sodir etgan va moyil shaxslar bilan profilaktik tadbirlarni hisobini yuritishdan boshlanadi. Bunday toifadagi shaxslarga tarbiyaviy ta’sir etishda manfaatdor muassasa va tashkilotlar hamkorlikda kompleks chora-tadbirlar olib borilishi o‘z samarasini beradi va jinoyatlarni oldini oladi. Ularda ijtimoiy hayotga mos xulq-atvor va turmush tarzini shakllantirishga bevosita o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Huquqbuzarliklarning profilaktikasini viktimalogik jihatlarini qonunning 6-bobida berilgan. Profilaktik faoliyatning viktimologik jihatlarini bugungi kungacha yuridik pedagogikada o‘rganilmagan ob’ekt hisoblanadi va buni yuridik pedagogika fanida alohida o‘rganilishi lozim deb hisoblaymiz.[6]

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, huquqbuzarliklarning xususan, jinoyatlarning oldini olishda xalqimizning ma’naviy-madaniy saviyasi, fuqorolarning huquqiy bilimlarini qay darajada ekanliklari bilan hisoblashimiz zarur va shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston nashryoti, 2021. 62,453-betlar.
2. R.M.Maxmudov. Jamoat tartibini saqlashda jinoyatlarni oldini olishning vositalari. T.: Akademiya.1998 yil.
3. Н.Островский. Педагогические основы профилактики правонарушений. Т.Фан 1988 г.
4. D.M.Mirazaov. Firibgarlik jinoyatlarining profilaktikasi bo‘yicha xudud metodikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma.T.-2019. bet-76.
5. A.Q. Munavvarov. Oila pedagogikasi.T.:1994. bet-65.
6. Mualliflar jamoasi Ismoilov I. rahbarligida “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyati” darslik. T.: O‘zbekiston IIV Akademiyasi, 2019. - 336 b.